

**МИНИСТЕРСТВО ЗДРАВООХРАНЕНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН
БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ МЕДИЦИНСКИЙ ИНСТИТУТ
ИМЕНИ АБУ АЛИ ИБН СИНО**




Научно-практической конференции с международным
участием на тему:

**“ Проблемы экологии и
экологического образования ”**

СБОРНИК ТЕЗИСОВ

11-12 ноября 2022 года

Министерство Здравоохранения Республики Узбекистан Бухарский
государственный медицинский институт имени Абу Али ибн Сино



Научно-практической конференции с международным
участием на тему:

“ Проблемы экологии и экологического образования ”

СБОРНИК ТЕЗИСОВ

11-12 ноября 2022 года

ТУПРОҚ БИЛАН ТОЗАЛАШ, ДАВОЛАШ УСУЛЛАРИ.....	178
151. To`qboeva D.Z., Nafasova E	
O`QUCHILARNI EKOLOGIK TARBIYALASHDA XALQ PEDAGOGIKASIDAN FOYDALANISH.....	178
152. Hakimjonov Azimjon Sodiqjon o`g`li	
IQLIM O`ZGARISHLARINING AHOLI YASHASH JOYLARIGA TA`SIRI.....	179
153. Салиева.М.Х Халмирзаева.С.С Усмонова.Г.К Сойибжонов.Ш.О	
ОРГАНИЗМИНИ ТОЗАЛАШ-ДАВОЛАШ УСУЛЛАРИНИ БИОРИТМ НУҚТАИ НАЗАРИДАН ТУШУНИШ.....	180
154. Халмирзаева.С.С Салиева.М.Х Минаваров.А.А Мамадалиев.Х	
ҚУЁШ НУРЛАРИНИ ОРГАНИЗМГА АХАМИЯТИ.....	181
155. Otajonov Ikromjon Toxirjon o`g`li	
BOLALAR KASALLANISHINI O`RGANISHDA TIBBIY KO`RIKLARNING AHAMIYATI.....	182
157. Шамсутдинова М.А. ¹ , Воронина Н.В. ²	
АКТУАЛЬНЫЕ ГИГИЕНИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ БЕЗОПАСНОСТИ ПИТАНИЯ НАСЕЛЕНИЯ: МЕТОДЫ АНАЛИТИЧЕСКОГО КОНТРОЛЯ МИКОТОКСИНОВ.....	183
158. <i>Ташпулатова Г.А., Магай М.П., Хамидова Г.М.</i>	
<i>Научно-исследовательский институт санитарии, гигиены и профзаболеваний</i> ОБОСНОВАНИЕ ДОПУСТИМОГО УРОВНЯ ЭЛЕКТРОМАГНИТНОГО ИЗЛУЧЕНИЯ, СОЗДАВАЕМОГО СИСТЕМАМИ ПОДВИЖНОЙ РАДИОСВЯЗИ.....	184
159. Ташпулатова Г.А., Красавин А.Н., Усманов И.А.	
<i>Научно-исследовательский институт санитарии, гигиены и профзаболеваний</i> ОЦЕНКА УСЛОВИЙ ТРУДА ОПЕРАТОРОВ КОЛЛ-ЦЕНТРА, РАБОТАЮЩИХ С СОВРЕМЕННОЙ КОМПЬЮТЕРНОЙ ТЕХНИКОЙ.....	185
160.. Saidova Sohobaxon Abrorjon qizi Farg`ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti	
“Kommunal va mehnat gigiyenasi” kafedrası assistenti	
HOZIRGI GLOBAL EKOLOGIK MUAMMOLAR VA AHOLI YASHAYDIGAN HUDUDLARNI QATTIQ MAYISHIY SHIQINDILARDAN HALOS ETISH CHORALARI HAQIDA.....	186
161. Avezova Guloyim Sattarovna	
Toshkent tibbiyot akademiyasi, Bolalar kasalliklari propedevtikasi kafedrası dotsenti, t.f.n.	
UCH YOSHGACHA BOLALAR O`LIMIGA TA`SIR ETUVCHI XAVF OMILLARI.....	187
162. Мафура Сагдуллаева. Тошкент Тиббиёт Академияси	189
МУДАТИДАН ЎТИБ ТУҒИЛГАН БОЛАЛАРНИ ЎСИШ ВА РИВОЖЛАНИ ГОРМОНИКЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШГА ҚАРАТИЛГАН ГИГИЕНИК ТАВСИЯЛАР.....	
163. Мафура Сагдуллаева. Тошкент тиббиёт академияси	190
МУДАТИДА ЎТИБ ТУҒИЛГАН БОЛАЛАР КАСАЛЛАНИШ ҲОЛАТИНИ ГИГИЕНИК ТАҲЛИЛИ.....	

Bolalar o'limining darajasi onaning parvarish sifatiga bog'liq bo'ladi, shu sababga ko'ra bola hayotining barcha davrlari davomida u ham yetakchi, ham hal qiluvchi omillardan bo'lib hisoblanadi. Ona parvarishi qoniqarsiz deb baholangan oilalarda shanslar nisbati 5,31ga tengligi qayd etildi. Demak, bolaga ko'rsatilayotgan ona parvarishi qoniqarsiz bo'lganda ulardagi o'lim xavfi o'rtacha xavfdan (1,0) 5,31 marta yuqori bo'lishi aniqlandi. 2 va 3 yoshda bu ko'rsatkich 4,5ga teng. Ko'krak suti bilan tabiiy ovqatlantirish bolalarning kasalliklarini va o'limini oldini olishda o'ta muhim ahamiyatga ega. Ba'zi bir mualliflarning fikricha, bola hayotining birinchi yilida ko'krak suti bilan boqilishi va o'tkir respirator virusli infeksiya kasalligiga chalinishi hamda bolalar hayotining birinchi yilida ularning oshqozon ichak yo'li tomonidan qanday buzilishlar bo'lsa, kattaroq yoshlarda ham (2-3 yoshgacha) shunday holatning yuzaga kelishi o'rtasida ham ishonchli bog'liklar mavjud (B.M.Mamatqulov, 2012). Bolalar ko'krak suti bilan oziqlantirilmaganda go'daklar o'limi xavfi ko'krak suti bilan boqilgan bolalarga qaraganda 3,67 marta yuqoriligi aniqlandi. Bolani ko'krak suti bilan emizish davomiyligi ham bolalar salomtligiga ta'sir etadi, 2 yoshgacha ko'krak suti bilan boqilgan bolalar o'limi xavfi 2,48 martaga kamayishi qayd qilindi. Kechiktirib murojaat qilingan oilalardagi bolalar orasida o'lim xavfi o'z vaqtida murojaat qilgan oilalari bolalari o'lim xavfidan birinchi yoshda 3,14; 2 va 3 yoshda esa 2,71 marta ko'pligi qayd qilindi. Ota-onalar tomonidan doimiy profilaktik ko'riklardan o'tish va bola betob bo'lganda shifokorlarga o'z vaqtida murojaat qilishi, kasallik asoratlarini bartaraf etish va ularning ko'ngilsiz yakun topishining oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi va bunday oilalarda bolalar o'lim xolatlarining xavfi 2,5-3 martagacha kamayadi. Ota-onalar birinchi tibbiy yordamni va betob bola uchun zarur parvarishni amalga oshira olmaydigan barcha oilalarda bolalar o'limi xavfi ko'rsatkichlari ularning o'rtacha xavfidan 2,0-2,5 marta ko'pligi aniqlandi. Ushbu omillar bolaning yoshi qanchalik kichik bo'lsa, omilning ta'sir kuchi shunchalik yuqori bo'lishini ko'rsatdi. Shuning uchun, barcha erta yoshli bolalar ota-onalarning, oila shifokorlarining qat'iy nazorati va parvarishi ostida bo'lishlari kerak.

Xulosa. Go'daklar o'limiga ta'sir qiluvchi xavf omillari orasida yuqoridagi omillarga qo'shimcha ravishda tug'ilgan vaqtda bolaning sog'liq holati, onaning ma'lumoti, va uning bola parvarishi sifati, bola betob bo'lganda o'z vaqtida shifokorga murojaat qilish kabi omillar kiradi. Bolalar hayotining 2-3- yilidagi o'lim ko'rsatkichlarni kamaytirishga profilaktik ko'riklardan o'tish, bolaning 1 yoshda tez-tez kasal bo'lishi kabi omillar kiradi. Toshkent shahrida erta yoshli bolalar salomatligini yaxshilash, eng avvalo ularning ota-onalari va oilalarning tibbiy faolligini oshirishga yo'naltirilgan maqsadli chora tadbirlar ishlab chiqilishiga, oila a'zolarini, ayniqsa onalarning o'z farzandlarini bevosita parvarish qilish kabi omillarga bog'liq.

МУДАТИДАН ЎТИБ ТУҒИЛГАН БОЛАЛАРНИ ЎСИШ ВА РИВОЖЛАНИШНИ ГОРМОНКЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШГА ҚАРАТИЛГАН ГИГИЕНИК ТАВСИЯЛАР

МАФУРА САГДУЛЛАЕВА

ТОШКЕНТ ТИББИЁТ АКАДЕМИЯСИ

Муаммонинг долзарблиги. Она ва чақалоқ саломатлигига ҳомиладорлик асоратлари гестоз, фетоплацентар етишмовчилик, резус-омил бўйича иммунологик мос келмаслик, муддатидан ўтган ҳомиладорлик каби белгиларнинг қайт қилиниши, айниқса ҳомиладор аёл тосини анатомик тор бўлиши билан бирга келадиган ҳомилани йирик ўлчамлари аёлларни экстрагенитал касалликлари нохуш таъсир кўрсатиши мумкин. Шу билан боғлиқ ҳолда хавфсиз оналик, тирик, соғлом болани туғилишини таъминлаш учун кўп ҳолларда муддатидан олдин туғрукни ҳал этиш зарурияти тўғрисидаги масалани ҳал этишга тўғри келади. Бугунги кунда муддатида ўтиб туғилган болаларнинг саломатлик ҳолатини гормониклигини таъминлаш бугунги кундаги долзарб муаммолардан биридир.

Тадқиқотнинг мақсади. мудатидан ўтиб туғилган болаларни ўсиш ва ривожланишни гормониклигини таъминлашга қаратилган гигиеник тавсияларни татбиқ этиш ва санаитрия маориф ишларни амалга оширишдан иборат.

Олинган натижалар таҳлили. Бугунги кунда мамлакатимизда оналик болаликни ҳимоя қилиш билан биргаликда аҳолининг турли қатламлари орасида уларнинг саломатлик ҳолатини ҳимоялашга қаратилган чора-тадбирларни ишлаб чиқариш бугунги кунда тиббиёт ходимлари олдида турган дозарб муаммолардан биридир. Бирок, тиббиёт ходимлари бажариши билан биргаликда муддатидан ўтиб туғилган болаларнинг оналари ва тарбиячилари бажариши лозим бўлган тавсиялар қуйидагилардан иборат: Буларга: муддатида ўтиб туғилган болаларни гуруҳларни ажратиш, муддатида ўтиб туғилган болаларнинг кун тартибини тўғри ташкиллаштириш; муддатида ўтиб туғилган болаларнинг саломатлик ҳолати ва овқатланишни ташкиллаштириш; муддатида ўтиб туғилган болаларни она сути билан боқиш тартибини ташкиллаштириш; муддатида ўтиб туғилган болаларнинг саломатлик ҳолатини таҳлиллар асосида гуруҳларга ажартиш; тиббий кўрикларни давомийлигини амалга ошириш ва уларнинг натижаларга қараб болаларни қайси касалликларга мойиллиги, хавф омилларни ажратиш ва таҳлил қилиш; болаларнинг жисмоний ривожланишини даврий монитроингини амалга ошириш; муддатида ўтиб туғилган болалар овқатланишни даврий мониторинг амалга ошириш; болаларнинг парваришга бағишланган гигиеник тавсияларни амалга ошириш; муддатида ўтиб туғилган болаларнинг қўшимча даволовчи-жисмоний тарбия машғулотлари билан шуғуллантириш тадбирларини амалга ошириш; ушбу болаларнинг даврий ухлаш тартибини ташкиллаштириш орқали саломатлик ҳолатини тиклашнинг асосий мезонларидан бири ҳисобланади.

МУДДАТИДА ЎТИБ ТУВИЛГАН БОЛАЛАР КАСАЛЛАНИШ ҲОЛАТИНИ ГИГИЕНИК ТАҲЛИЛИ

Мафура Сагдуллаева

Тошкент тиббиёт академияси

Муаммонинг долзарблиги. Муддатидан ўтиб туғилган болаларнинг саломатлик ҳолатини мустаҳкамлаш ва ҳимоялашга қаратилган гигиеник талабларни амалга ошириш ва назорат қилиш соҳа ходимлари олдида турган долзарб муаммолардан биридир. Муддатидан ўтиб туғилган чақалоқларнинг марказий асаб тизимини перинатал зарарланиши неврологик бузилишларнинг ортиши, мотор ва нутқ ривожланишидаги нуқсонлар, ҳаракат фаолиятини бузилиш натижасида юзага келадиган патологиялар ривожланишини исботлашган. Мамлакатимизда болалар орасида ривожланишида нуқсон натижасида юзага келадиган камқонлик, йод танқислик ҳолати, ўсиш ва ривожланишдан орқада қолиш каби ҳолатлар даврий равишда қайт қилмоқда ва буни бартараф этиш соҳа ходимлари олдида турган муаммолардан биридир.

Тадқиқотнинг мақсади. Мудатидан ўтиб туғилган касалланиш даражасини гигиеник таҳлил қилишдан иборат.

Тадқиқотнинг материал ва усуллари: Назорат остига олинган муддатида илгари туғилган болаларининг касалланиш ҳолати профилактик тиббий кўрик натижалари ҳамда мурожаатлар бўйича касалликлар таҳлили Халқаро касалликлар таснифи ХКТ-10 (1993) асосида таҳлил амалга оширилган.

Олинган натижаларнинг статистик таҳлили «Pentium-IV» процессори асосидаги шахсий компьютернинг амалий дастурий пакети Excel ёрдамида анъанавий вариацион статистика усуллари ёрдамида ўтказилди.